



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 14-sentabr, shanba,
105 (23.982)-son

**KUN
HIKMATI**

O'tgan
vaqtning, umrning
qadr-qimmatini
undan rozi
bo'lishimiz bilan
o'lchanadi

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

Samarqandda Mirzo Ulug'bekning 630 yilligi keng nishonlanadi

Davlatimiz rahbari 12-sentabr kuni “Buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug'bek tavalludining 630 yilligini keng nishonlash to'g'risida” qaror qabul qildi.

Qarorga ko'ra, mamlakatimizdagi Mirzo Ulug'bek nomi bilan bog'liq obyektlarni, shu jumladan, Mirzo Ulug'bek sharafiga barpo etilgan yodgorlik majmualarini mukammal ta'mirlash va ularning hududlarini obodonlashtirish; alloma ilmiy-ijodiy merosiga mansub qo'lyozma va boshqa madaniy boyliklarni restavratsiya qilish, ularni ishonchli saqlash uchun zarur sharoit yaratish;

Mirzo Ulug'bek tavalludining 630 yilligiga bag'ishlab “Jahon tamadduni rivojida Mirzo Ulug'bek ilmiy-ma'rifiy merosining o'rni va ahamiyati” mavzusida ilmiy-adabiy tadbirlar o'tkazish;

davlat teatrlari va talabalar teatr-studiyalarida Mirzo Ulug'bek hayoti va faoliyatiga oid spektakllar sahnalashtirish;

Mirzo Ulug'bekning boy merosini o'rganish maqsadida xalqaro miqyosda keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borish va ularning natijalarini e'lon qilish, shu mavzuda ilmiy, badiiy-publistik asarlar yaratish, xorijiy olimlarning asarlarini o'zbek tilida nashr qilish;

Mirzo Ulug'bek siyosati tasvirlangan, uning shaxsi, davlat arbobi sifatidagi faoliyati va allomaning ilmiy-ma'rifiy merosiga bag'ishlangan ko'rgazmali axborot vositalarini tayyorlash, media mahsulotlar va audiovizual asarlar yaratish, ularni mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida keng yoritish, internet hamda ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish belgilandi.

Jumladan, 10-11-oktabr kunlari Samarqand shahrida “Mirzo Ulug'bek: buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi” mavzusidagi xalqaro konferensiya o'tkaziladi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda Mirzo Ulug'bek hayoti va ilmiy-ma'rifiy merosini tadqiq etishga oid ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha davlat buyurtmasi talablariga muvofiq ilmiy loyihalar tanlovini e'lon qilish, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tomonidan allomaning “Ziji jadidi Ko'ragoniy” asarini o'zbek, rus va ingliz tillarida, “To'rt ulus tarixi” nomli tarixiy asarining o'zbek tiliga tarjimasi qayta nashr qilinishini tashkil etish, Mirzo Ulug'bek hayoti va ilmiy-ma'rifiy merosini o'rganishga bag'ishlangan eng yaxshi ilmiy maqolalar tanlovini o'tkazish vazifalari topshirildi.

Fanlar akademiyasi esa 2024-yil oktabr oyida ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida Mirzo Ulug'bek asarlari nashrining taqdimotlarini o'tkazishi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida Mirzo Ulug'bek davriga oid asarlar qo'lyozmalarining ko'rgazmasini tashkil etishi belgilandi.

Yubiley tadbirlari doirasida Mirzo Ulug'bek haqida yaratilgan “Osmon to'g'iga qo'yilgan narvon” nomli hujjatli film taqdimoti o'tkaziladi.

Viloyat Ma'naviyat va ma'rifat kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi.
Unda kengash raisi, viloyat hokimi E.Turdimov va kengash a'zolari, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari O.Hasanov ishtirok etdi.

Yig'ilishda viloyatimizda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar muhokama qilindi.

So'nggi uch yilda viloyatning barcha tuman va shaharlarida ma'naviyat va ma'rifat maskanlari barpo etilib, “Ma'naviyat festivali”, “Ma'rifat ulashib”, “Mahallada kino karvon”, “Ma'rifati kitobxon” hamda “Milliy kontent”, “Matonatli yo'l” kabi ma'naviy-ma'rifiy loyihalar o'tkazib kelinmoqda. Jumladan, joriy yilning o'tgan 8 oyi davomida 11 ming 200 dan ziyod ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etilib, 283 mingdan ortiq aholi jalb qilindi.

Amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan birga, hududda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, samaradorligini oshirishga to'sqinlik qilayotgan bir

MA'NAVITYAT — MUHIM MASALA



qator kamchilik va muammolarga ham to'xtalib o'tildi.

- Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining viloyati bo'limi va 16 ta tuman (shahar) bo'linmasi tomonidan

448 ta korxona, tashkilot va idoralar bilan birgalikda ma'naviy-ma'rifiy sohada hamkorlik “Yo'l xarita”lari ishlab chiqilgan, - dedi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari O.Hasanov.

13-sentabr kuni xalq deputatlari viloyati Kengashi hamda Oliy Majlis Senatining sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining qo'shma majlisi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda xalq deputatlari viloyati Kengashi deputatlari, Senatning sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi a'zolari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi xodimlari, korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashi a'zolari ishtirok etdi.

Dastlab Senatning sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi Narimon Umarov viloyatda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishlarning holati hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimida sodir etilgan korrupsiyaviy jinoyatlar, ularni yuzaga keltirgan sabab va omillar haqida so'z yuritdi.

- Viloyatda joriy yilning 7 oyi davomida 192 ta korrupsiya va mansabdorlik jinoyatlari sodir etilgan,

Korrupsiyaga qarshi jamoatchilik bilan birga kurashamiz

257 nafar shaxs jinoyi javobgarlikka tortilgan, - dedi N.Umarov. - Bu toifadagi jinoyatlar oqibatida davlat manfaatlariga 110 milliard so'm zarar yetkazilgan. Javobgarlikka tortilgan shaxslarning 156 nafari mol-mulkni talon-toroj qilish, 23 nafari firibgarlik, 14 nafari mansab vakolatini suiiste'mol qilish, 13 nafari pora berish va pora olish, 51 nafari boshqa toifadagi korrupsiyaviy jinoyatlarni sodir etgan.

Yig'ilishda viloyat prokuraturasi, ichki ishlar boshqarmalari rahbarlari, deputatlar so'zga chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida amalga oshirilayotgan ishlar haqida axborot berildi.

Jinoyatlar sohalar bo'yicha tahlil qilinganda, maktabgacha va maktab ta'limi, sog'liqni saqlash, bandlik, oliy ta'lim, bank va ichki ishlar tizimidagi

xodimlarning jinoyat sodir etganligini ko'rish mumkin. Maktabgacha va maktab ta'limi, sog'liqni saqlash va hokimlik tizimida budjet mablag'larining talon-toroj qilinishiga ko'p hollarda oylik ish haqini ortiqcha hisoblab yozish sabab bo'lgan.

Majlisda shu kabi holatlar tahlil etilib, sohalar mas'ullaridan izoh so'raldi.

Viloyat hokimi E.Turdimov viloyatda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlar samaradorligini oshirishda hududiy kengash va deputatlar faolligini oshirish, jamoatchilik bilan hamkorlikni kengaytirish zarurligini ta'kidladi.

Qo'shma yig'ilishda muhokama qilingan masala yuzasidan qaror qabul qilindi.

A.HAYDAROV.

TAYINLOV

Rustamov Latif Botirovich -

viloyat sanitariya-epidemiologik
osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi boshlig'i
vazifasini bajaruvchi etib
tayinlandi.



Uchastka saylov komissiyalari tarkibi tasdiqlandi

Viloyat hududiy saylov komissiyasining 13-sentabr kuni bo'lib o'tgan navbatdagi majlisida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda mahalliy Kengashlar deputatlari saylovi bo'yicha uchastka saylov komissiyalari tarkibini tasdiqlash to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi.

Komissiya raisi X.Muhammadiyev boshqargan yig'ilishda xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari hamda harbiy qismlar komandirlari, qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylari rahbarlari tomonidan uchastka saylov komissiyasi a'zolariga nomzodlar ko'rib chiqilib, tasdiqlash uchun hududiy saylov komissiyasiga Ye-saylov tizimi orqali tavsiya etilgan ma'lum qilindi.

- Viloyat bo'yicha mavjud 1130 uchastka saylov komissiyasiga 12 ming 144 kishi jalb etilmoqda, - deydi viloyat hududiy saylov komissiyasi raisi o'rinbosari Sanjar

Nazarov. - Ularning 5598 nafari, ya'ni 46 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. 289 ta uchastka saylov komissiyasiga xotin-qizlar rahbarlik qiladi. Komissiya a'zolarining 52 foizi xalq ta'limi tizimi xodimlari, 17 foizi davlat idoralari va muassasalari xodimlari, 10 foizi jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat.

Majlisda uchastka saylov komissiyalari tarkibi tasdiqlandi va bu haqdagi ma'lumot ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi belgilandi.

Viloyat hududiy saylov komissiyasi matbuot markazi.

Kam ta'minlangan oilalar vakillariga ishlash imkoniyati yaratildi

Viloyatimizda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 11-sentabr kuni o'tkazilgan kambag'allikni qisqartirish ishlarini sifat bosqichiga olib chiqish masalalari muhokamasi bo'yicha video-selektor yig'ilishida berilgan topshiriqlar ijrosiga kirishildi.



Savdo-sanoat palatasi tashabbusi bilan viloyat hokimligi va Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy boshqarmasi hamkorligida “Tadbirkor - elga madadkor” shiori ostida viloyatda umumiy ovqatlanish yo'nalishida faoliyat yuritib kelayotgan 11 ta tadbirkorlik subyektiga 150 ta veloskuter topshirildi. Buning asosiy sharti Ijtimoiy himoya milliy agentligi ro'yxatida turgan kam ta'minlangan oilalarning mehnatga layoqatli vakillarini ish bilan ta'minlashdan iborat.

- Hech kimga sir emas, bugungi kunda jamiyatda umumiy ovqatlanish tizimida yetkazib berish xizmatiga bo'lgan talab ortib bormoqda, - deydi Savdo-sanoat palatasi viloyat boshqarmasi boshlig'i Dilshod Musinov. - Shu bois, ijtimoiy himoya ro'yxatiga kiritilgan kam ta'minlangan oilalarning mehnatga layoqatli vakillarini ish bilan bandligini ta'minlash istiqbolli yo'nal-

ish sifatida belgilandi. Hamkor tashkilotlar bilan birgalikda ushbu tashabbusni amalga oshiryapmiz.

Ta'kidlash kerakki, veloskuterlar tadbirkorlik subyektlariga beriladi va ular veloskuter uchun to'lovni 6 oy davomida foizsiz bo'lib to'laydi.

- Mijozlarimiz orasida uydan yoki ish joyidan turib buyurtmalar berish oshib bormoqda, - deydi “Belissimo Samarqand” mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Dilyor Esanov. - Ayni kunlarda yetkazib berish xizmatini yanada rivojlantirish rejimizda bor edi. Bu tashabbus bizga yanada qo'l keldi va uni to'la qo'llab-quvvatlab, bugun 50 ta veloskuterni imtiyozli ravishda oldik va ellikka yaqin yangi ish o'rni yaratamiz. Bu ish o'rinlariga Ijtimoiy himoya milliy agentligida ro'yxatda turgan kam ta'minlangan oila vakillarini ishga qabul qildik. Bu bir tomondan faoliyatimizning rivojlanishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan bir nechta oilaning doimiy daromad manbai paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

Tadbirida viloyat hokimi o'rinbosari H.To'xtayev ishtirok etdi.

A.BAROTOV.

Tashkiliy ishlardan ovoz berishgacha

Saylovchi uchun saylovning ahamiyati shundaki, u qaysidir nomzod yoki partiya-ga ovoz berish orqali qonun chiqaruvchi va vakillik organida o'zi istagan nomzod bo'lishini istaydi. Shu sababli ham siyosiy partiyalar Oliy Majlis quyi palatasi va mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlarini tasdiqlagach, bu jarayon yanada ko'proq ko'zga tashlanadi. Undan tashqari, Markaziy saylov komissiyasi (MSK) tayyorlagan turli targ'ibot vositalari aholini bu muhim siyosiy kampaniyaga befarq bo'lmaslikka undamoqda.



(Davomi 2-sahifada) >>>

Tashkiliy ishlardan ovoz berishgacha

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Natijada yurtdoshlarimiz qaysi siyosiy partiya yoki nomzodga ovoz berishga-gina emas, saylov jarayonidagi tashkiliy masalalarga ham qiziqish bildirmoqda. Shularni hisobga olib, viloyat hududiy saylov komissiyasi raisi Xo‘jaqul Muham-madiyevga murojaat qildik.

– Shu yilning 27-oktabr kuni o‘tkazila-digan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari sayloviga tayyorgarlik qizg‘in pallaga kirmoqda, – deydi X.Muhammadiyev. – 26-iyuldan boshlangan saylov kampaniyasi tadbirlari O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodek-si hamda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tasdiqlangan kalendar - reja asosida olib borilmoqda.

Saylov qonunchiligiga kiritilgan so‘ng-gi o‘zgarishlarga ko‘ra, endilikda say-lov komissiyalari tizimi Markaziy saylov komissiyasi, hududiy saylov komissiyalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi, tuman va shahar say-lov komissiyalari, xalq deputatlari viloyat-lar va Toshkent shahar Kengashlariga saylov o‘tkazish bo‘yicha okrug saylov komissiyalari va uchastka saylov komissi-yalaridan iboratdir.

Markaziy saylov komissiyasining 2024-yil 29-may kuni qabul qilingan qaroriga muvofiq, mamlakatimiz tarixida birinchi marta viloyatlar va Toshkent shahar hududiy saylov komissiyalari tuzildi.

Jumladan, Samarqand viloyati cheg-arasi doirasida 21 kishidan iborat viloyat hududiy saylov komissiyasi tuzildi. Komis-siya raisi o‘rinbosari va kotibi doimiy asosda faoliyat olib boradi.

– **Hududiy saylov komissiyasiga en-dilikda tegishli hududda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qonunchilik palatasi saylovlariga, shuningdek, referendumga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazishni tashkil etish vako-lati ham berildi. Bu komissiya uchun qiyinchilik tug‘dirmaydimi?**

– Yo‘q, bu tizimga o‘tishda avvalgi saylovlar xulosasi, xalqaro standartlar va xorijiy tajriba hisobga olingan. Hududiy saylov komissiyalariga bir qator vakolatlار berilgan. Tarkib ham kichik emas, ular orasida doimiy asosda ishlovchilar bor. Umid qilamanki, zimmamizga yuklatilgan vazifalarni bajarishga imkoniyat va salohi-yatimiz yetadi.

Kezi kelganda, komissiya faoliyati bilan bog‘liq ayrim o‘zgarishlarni ham aytib o‘tsam. Endilikda Prezident say-lovi, referendum, Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o‘tkazish uchun okrug saylov komissiyalari tuzilmaydi. Bu vazifani hududiy okrug saylov komissiyasi bajaradi. Tuman, shahar kengashlariga saylov o‘tkazish uchun ham okrug saylov komissiyasi bo‘lmaydi va bu vazifa tu-man, shahar saylov komissiyalari zimma-sida bo‘ladi.

Biz shu paytgacha o‘z vakolatimiz doirasida tuman va shahar saylov komis-siyalarini tuzish to‘g‘risida qaror qabul qildik. Shuningdek, xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylov o‘tkazuvchi 60 ta saylov okruglari tuzib, okrug saylov komissiyalari tarkibini tasdiqladik. Ilgari xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari uchun deputatlik o‘rinlari

bir xil, ya‘ni viloyatda 60 ta, tuman va shaharlarda esa 30 ta etib belgilangandi. Endi esa mahalliy Kengashlar qarori bilan deputatlik o‘rinlari hududda yashovchi aholi sonidan kelib chiqib belgilanmoq-da. Ya‘ni, viloyatda aholi soni 3 mil-liondan ortiqligi uchun xalq deputatlari viloyat Kengashiga 60 ta deputatlik o‘rni belgilangan. Tuman va shaharlarda esa 20 tadan 30 tagacha deputatlik o‘rinlari tasdiqlandi.

Bundan tashqari, komissiyaga kiritil-gan taqdimnoma asosida viloyatda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarga saylov o‘tkazuvchi 1130 ta saylov uchastkasi tuzildi. Uchastka saylov komissiyalari tarkibi tasdiqlandi.

Xabaringiz bor, bu yil ilk bor Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylov ara-lash, ya‘ni majoritar va proporsional tizim asosida o‘tkaziladi. Ya‘ni, parlamentimiz quyi palatasi 150 deputatining 75 nafari bir mandatlil saylov okruglari bo‘yicha saylovchilarning bevosita nomzodlar-ga bergan ovozlarga muvofiq, yana yetmish besh nafari esa yagona say-lov okruglari bo‘yicha siyosiy partiyalarga berilgan ovozlarga mutanosib ravishda siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan nomzodlar ro‘yxati asosida saylanadi. Endi saylovchi Qonunchilik palatasi depu-tatligiga saylovda ikkita bulletin orqali – birinchisida aniq bir nomzodga, ikkin-chisida siyosiy partiya ovoz beradi.

Markaziy saylov komissiyasi tomoni-dan viloyatimizda Qonunchilik palatasiga saylov o‘tkazuvchi 8 ta saylov okruglari tuzilgan.

– **Saylov kampaniyasi haqida ko‘p aytilyapti va yozilyapti. Ayniqsa, aralash saylov tizimi to‘g‘risida MSK targ‘iboti sezilmoqda. Biroq mahal-liy Kengashlarga saylovlarda ham bir qator yangi tartib va o‘zgarishlar bo‘lgan. Aholi, aniqlash, saylovchi bulardan xabardor etilyaptimi?**

– Albatta, MSK qaroriga ko‘ra, Adliya vazirligi tomonidan belgilangan rejaga muvofiq, barcha tashkilotlarda, ma-hallalarda olimlar, mutaxassislar, hatto nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari jalb etilgan holda yangi saylov tizimi to‘g‘risi-da tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Har bir saylov uchastkasi a‘zolari o‘z hududidagi mahalla, muassasa va tash-kilotlarda suhbatlar orqali saylovni tashkil etish va o‘tkazish masalalari yuzasidan tushunchalar bermoqda.

Shuni aytish kerakki, Saylov kodek-sining 20, 20(1)-moddalarida hududiy va tuman, shahar saylov komissiyalarining vakolatlari aniq belgilangan. Komissi-yalar ana shu normalar asosida faoliyat ko‘rsatmoqda.

– **Endi nomzodlar g‘olib bo‘lishi uchun avvalgidek, ovoz beruvchilar-niing yarmidan ko‘pini olishi shart emas. To‘g‘ri, bu takroriy saylovga o‘rin qoldirmaydi, mehnat va xarajatni tejaydi. Biroq bitta yoki ikkita mahalla hududidagi okruglarda tarfakashlik yuzaga kelmaydimi?**

– Avalo, saylov erkin va oshkora jarayon. Bu jarayondagi kamchiliklar navbati bilan bartaraf etib borilyapti. Shuning uchun ham davlatimiz keyin-gi paytda aholining huquqiy va siyosiy saviyasini oshirish yuzasidan amaliy

choralar ko‘rmoqda. Tashkiliy masala-da esa salbiy holatlarga yo‘l qo‘ymas-lik tadbirlari belgilangan. Birinchidan, uchastka saylov komissiyalarini shakllan-tirishda har bir mahalla manfaati hisobga olingan. Ikkinchidan, siz aytgan holatni bartaraf etish uchun qonunchilikda nor-malar belgilangan. Har qanday holatda ham saylov taqdirini saylovchining siyo-siy zukkoligi, xolisligi hal qiladi. Davrni, dunyodagi voqeiklarni kuzatib borayot-gan yurtdoshlarimiz o‘z taqdiriga befarq bo‘lmaydi, deb ishonaman.

– **Bu kabi holatlarning oldini olish uchun ham choralar belgilangan bo‘lsa kerak?**

– Bu masalada qonunchilimiz puxta ishlangan. Saylov kodeksiga asosan, tuman (shahar) saylov komissiyalari saylov jarayonida uchastka saylov komissiyalarining qarorlari Kodeksga zid bo‘lsa, ushbu qarorlarni mustaqil ravishda yoki tuman, shahar prokuror-ining taqdimnomasiga binoan bekor qiladi. Shuningdek, siyosiy partiyalar, OAV vakillari va kuzatuvchilar tomoni-dan saylov jarayonining ochiq, shaffof va adolatli o‘tkazilishini doimiy kuzatib borish tizimi yaratilgan.

– **Endi nomzodlarning saylovchilar bilan uchrashuvlariga to‘xtalsak. Ular qachon, qayerda va kim tomonidan uyushtiriladi?**

– Nomzodlar bilan uchrashuvlar joyi, vaqti nomzodlar saylov komissiyasi tomonidan ro‘yxatga olingandan keyin siyosiy partiyalar tomonidan belgilanadi. Mahalliy hokimiyat bunday uchrashuv-lar uchun joy tayyorlab berish vazifasini bajaradi. Siyosiy partiyalar esa saylov komissiyalarini bu uchrashuvlardan xa-bardor qiladi.

– **Saylov uchastkalarining bir qismi umumta‘lim maktablarida joylashgan. Bu narsa ta‘lim jarayoniga ta‘sir qil-maydimi? Internet tarmog‘iga ulanma-gan tibbiyot muassasalarida joylash-gan saylov uchastkalarida muammo yuzaga kelmaydimi?**

– Avvalo, har bir saylov uchastkasi saylovchilarning kelib-ketishiga mos joy-lardan tanlangan. Uni mahalliy ijro organ-lari belgilagan va Markaziy saylov komis-siyasining qaroriga ko‘ra, har bir saylov uchastkasi sifatli internet aloqasi bilan ta‘minlangan. Saylov uchastkasiga kirish va chiqish joylari dars jarayoniga ta‘sir qilmaydi. Chunki ovoz berish jarayoni dars mashg‘ulotlari bo‘lmagan vaqtda, ya‘ni yakshanba kuni o‘tkaziladi.


– **O‘tgan saylovlarda ayrim uchast-kalarda ovoz berish jarayonini onlayn kuzatish tizimi yo‘lga qo‘yilgan edi. Tajribadan kelib chiqib, bu yil ham shunday bo‘ladimi?**

– Albatta, tajriba davom ettirilaveradi. Ammo bu narsa bevosita texnik hamda moliyaviy masala bilan bog‘liq bo‘lgan-ligi uchun MSK ishchi guruhi har bitta tumandan bir yoki ikkita saylov uchastka-larida ana shunday jihozlash ishlari olib bormoqda.

– **Elektron ovoz berish tizimi-chi, bizda u ham sinab ko‘riladimi?**

– To‘g‘risi, bu masala mening vako-latimga kirmaydi. Shunday takliflar bo‘ldi, o‘rganildi. Biroq masala yana murakkab texnologik jarayon va mablag‘ga borib taqaladi. Shu bois ham yaqin kunlar ichi-da Markaziy saylov komissiyasi sharoitni hisobga olib, aniq xulosaga keladi. Hozir-cha MSK elektron ovoz berish jarayonini sinovdan o‘tkazish yuzasidan qaror yoki ko‘rsatma chiqargan emas.

Yoqubjon MARQAYEV suhbatlashdi.



fuqaroga g‘amxo‘rlik qilaman, - deydi assistent Ozoda Ziyodova. – Vazifamiz faqat belgilangan vaqtda kelib, ma‘lum bir ishni bajarib ketishdan iborat emas. Biz asosiy vaqtini to‘shakda o‘tkazayotganlarni reabilitatsiya qilishimiz, hayotga qiziqtirishimiz kerak. Shaxsan o‘zim ikki nafar yolg‘iz keksaning qarindoshlarini topib, ularni uchrashtirdim. Juda xursand bo‘lishdi. Betob bo‘lganlarini shifoxonaga yotqizib, holidan xabar olib turibmiz.

Joriy yilning iyul oyi holatida tumandagi 11071 ta kam ta‘minlangan oilaga o‘ljimoiy hi-moya yagona reestri” axborot tizimi orqali bo-lalar nafaqasi va moddiy yordam to‘lab beril-gan. Ushbu ko‘rsatkich yil boshiga nisbatan (16518 ta) 5447 taga kamaygan. Unda nafaqa muddati tugagan, qayta o‘rganishda daromadi oshganligi aniqlangan oilalar ko‘pchilikni tash-kil etadi.

Jarayonda qonun buzilishlari ham aniqlan-moqda. Xususan, markaz va tuman ishchi guruhi tomonidan olib borilgan o‘rganishlar-da 5 ta korxona ishchilariga noqonuniy ish haqi yozilishi holati aniqlanib, fuqarolarga to‘lab berilgan jami 32 million so‘m to‘lovlar-ni maxsus hisob-raqamlarga qaytarish cho-ralari ko‘rilmoqda. Shuningdek, yana 1033 oilaga ularning daromadi belgilangan talab-larga to‘g‘ri kelmasligi sababli nafaqa ajratili-shi to‘xtatilgan.

Prezidentimizning 2024-yil 30-apreldagi “2024-yilda ipoteka kredit-larini ajratish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risi-da”gi farmoniga asosan joriy yilda viloyat bo‘yicha 11300 xonadon-li 182 ta ko‘pqavatli uyni foydalanishga topshirish belgilangan. Uy-joylarni topshirish muddatlari esa Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan. Viloyat hokimi boshchiligid a o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida bu borada belgilangan vazifalar ijrosi muhokama qilindi.

Uy-joy qurilishida o‘zibo‘larchilik

Ma‘lumotlarga ko‘ra, uy-joylar masalasi o‘rganib boshlangan bir oydan ortiq vaqt davomida atigi 1015 xonadonli 21 ta uy foydalanishga topshirilib, jami uylar soni 37 taga (19 foiz) yetgan.

Toyloq, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Ishtixon va Qo‘shrabot tumanlarida yil boshidan buyon biron ta ham uy foydalanish-ga topshirilmagan.

Reja bo‘yicha “Yangi O‘zbekiston” mas-sivlarida yildan yilga o‘tuvchi 1468 xonadonli 37 ta uy, jumladan, Bulung‘urda 20 ta (431 xonadonli), Urgutda 17 ta (1037 xonadonli) uyni iyun oyida foydalanishga topshirish bel-gilangan bo‘lsa-da, faqat Bulung‘urda 170 xonadonli 8 ta uy topshirilgan, xolos.

Past Darg‘om tumani “Eski Juma” ma-hallasida “Piramida Golden Rich” MChJ tomonidan qurilayotgan 40 xonadonli uy qurilish ishlari hanuzgacha qurilish nazorat inspeksiyasidan ro‘yxatdan o‘tkazilmagan. “Ipoteka bank” ATB tomonidan Bulung‘ur tumanidagi quruvchi “Bulung‘ur Tover” MChJga 12 milliard so‘m kredit ajratilma-gan. Uy-joylar belgilangan muddatda foyda-lanishga topshirilmaganligi sababli subsidiya xabarnomasini olgan 1414 nafar fuqaro quruvchilar bilan shartnoma tuza olmagan.

Dastur asosida qurilayotgan uy-joylar tahlil qilinganda, ko‘p uylarda qurilish ishlari juda sust olib borilayotganligi, pudratchilar tomonidan qurilish ishlari o‘z holiga tashlab qo‘yilganligi aniqlandi.

Urgut tumani “Yangi O‘zbekiston” massivida, xususan, “Radjabov Ilhom Asatilayevich”, “Buxoro Inshoot Grup”, “Grinvey bild konstrakshn”, “Javohir

Navoiy”, “Inshoot development Tim” MCh-Jlar tomonidan qurilayotgan 1 tadan uyda hatto poydevor ishlari yakunlanmagan, qurilish ishlari 10-15 foizni tashkil qiladi. Aslida 2023-yilda foydalanishga topshirili-shi belgilangan uy-joylar 2024-yilda ham topshirilmadan qolmoqda.

Bulung‘ur tumani “Yangi O‘zbekiston” massividagi “Bulung‘ur Tover” MChJ to-monidan qurilayotgan 2 ta uyda qurilish ish-lari 2-3 qavat g‘isht terish holatida to‘xtab qolgan. “Ipoteka bank” tomonidan kredit mablag‘lari ajratib berilmaganligi sababli 3 ta 100 xonadonli uyniing qurilish ishlari yakunlanmagan.

Kattaqo‘rg‘on tumanida Mirzo Ulug‘bek mahallasida “Mejik Speyc” MChJ tomoni-dan qurilayotgan 1 ta 50 xonadonli uyniing qurilishi sust olib borilmoqda.

“Kattaqo‘rg‘on maxsus qurilish” MChJ to-monidan qurilayotgan 20 xonadonli 1 ta uyda 3-qavatda qurilish ishlari to‘xtab qolgan.

Payariq tumani Bunyodkor mahallasida “Azamxon texno stroy” MChJ tomonidan qurilayotgan 45 xonadonli uyniing 5-qavatida g‘isht terish ishlari yakunlanmagan, ishlar juda sust olib borilmoqda.

Viloyat hokimi qo‘shimcha ishchi guruhlar jalb etib, qurilish ishlarni jadallashtirish bo‘yicha topshiriq berdi. Asosiysi, sifat, bel-gilangan muddat va narx bo‘yicha nazorat ishlarni olib borilishi zarurligini bildirdi. Shuningdek, subsidiya olgan fuqarolar va quruvchilar o‘rtasida shartnomalar masalasi-ni nazoratga olish bo‘yicha mutasaddilarga ko‘rsatmalar berildi.

O‘.XUDOYBERDIYEV.

Germaniya kapitali ishtirokida 9 ta korxona faoliyat yuritmoqda

Germaniya Federativ Respublikasi iqtisodiyoti keng davlatlaridan biri hisoblanadi. Mam-lakatda ta‘lim, tibbiyot, mashinasozlik, og‘ir sanoat, texnologik uskunarlar ishlab chiqarish rivojlangan. O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan Olmon o‘lkasi sanoat ishlab chiqarishining yangi sikliga o‘tdi. Hozir dunyoda Germani-ya texnologiyasi va standartlarini joriy etgan davlatlar talaygina. Jumladan, O‘zbekistonda ham ushbu davlat bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalari yil sayin o‘sib bormoqda. Xususan, viloyatimizda Germaniya kompaniyalari ka-pitali ishtirokida jami 9 ta qo‘shma korxona faoliyat yuritmoqda.

Oqdaryo tumanida mas‘uliyati cheklangan jamiyat shaklida faoliyat yuritayotgan “SAM TEXNO KOMPONENT” qo‘shma korxonasi Samarqand avtomobil zavodida ishlab chiqarayotgan avtobuslar-ga butlovchi qismlar ish-lab chiqarayotgan bo‘lsa, tumandagi “ZARAFSHON LOHMANN PARRANDA” korxonasi parrandachilikni rivojlantirish yo‘nalishida ish olib bormoqda. Shu-niingdek, Payariq tumanidagi “O‘ZBEGIM AGRO” O‘zbekiston-Germaniya qo‘shma korxonasida sutni qayta ishlash, Past Darg‘om tumanidagi “AGRO CON-TINENT GARDEN” korxo-nasida bog‘dorchilik yo‘lga qo‘yilgan.

– 2018-yilda ger-maniyalik ishbilarmonlar bilan internet tarmog‘i orqali tanishib, uchrash-dik va hamkorlik qilishga kelishdik, - deydi Oqdaryo tumanidagi “SAM TEXNO KOMPONENT” korxonasi ijrochi direktori Shahboz Rahmatov. – Shundan so‘ng ular ta‘sischiligid a kerakli uskunarlar keltirildi. Hozirda olti nafar ishchi bilan avto-

buslarning oyna tozalagich, isitkich va magnitofon kabi o‘nga yaqin qismlarini ishlab chiqaryapmiz. Korxonamiz-da mahalliyashtirish dara-jasi 30 foizga yetib qoldi. Hozirda universal halokat tuynuklarini sinovdan o‘tkaz-yapmiz. Yana bir nech-ta yangi qismlarni ishlab chiqarmoqchimiz.

Viloyat investitsiya, sanoat va tashqi savdo boshqarmasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda viloyatda amalga oshirilayotgan in-vestitsiya loyihalari doirasida Germaniyadan jami 29,3 million dollar investitsiya o‘zlashtirilgan.

Shuningdek, o‘tgan yil viloyatimizning Germaniya bilan tovar aylanmasi 55,9 million dollarni tashkil etdi. Ushbu davlatga asosan quritilgan meva-sabzavot, mayiz, qalampir va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport qilindi.

Joriy yilning o‘tgan davrida esa Germaniya bilan tovar aylanmasi 35,6 million dollarni tashkil etib, 32,9 million dollarlik import hamda 2,7 million dollarlik eksport amalga oshirildi.

O‘.XUDOYBERDIYEV.

Raqamlar qisqarmoqda, lekin ish ko‘lami emas

Kattaqo‘rg‘on tumanidagi 69 mahallada 294 ming nafarga yaqin aholi istiqomat qiladi. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan oilalar soni va aholining de-mografik joylashuviga qarab tuman 18 hudud, 36 uchastkaga bo‘lingan. Har bir uchastkada bir nafar ijtimoiy xodim faoliyat olib bormoqda.

— Tumanda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi tashkil etilganiga bir yil to‘ldi, - deydi markaz direktori Nabijon Jo‘rayev. – Ishni boshlagani-mizda barcha yo‘nalishda raqamlar katta edi. Xatlov o‘tkazdik. Unda qaysi yo‘nalishda, kimlar bilan ishlashimiz kerakligi aniq bo‘ldi. Keyingi bosqichda har bir mahalla, xonadon va oilalarga kirib borishga, e‘tibordan chetda qolgan ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni aniqlashga harakat qilyapmiz.

Ma‘lumotga ko‘ra, yil boshida tumanda o‘zgalar parvarishiga muhtoj 150 nafar yolg‘iz yashovchi keksa va nogironligi bo‘lgan shaxslar mavjud edi. Olib borilgan manzillil ijtimoiy xiz-matlardan so‘ng ularning 50 nafari ro‘yxatdan chiqarildi. O‘z navbatida yana 24 nafar yolg‘iz keksa va nogironligi bor fuqarolar aniqlanib, ijtimoiy himoyaga olindi.

— O‘zgalar parvarishiga muhtoj olti nafar



Bugun yoshlarga yurt ravnaqini ta'minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaralmoqda. Natijada yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, qat'iy pozitsiyaga ega yoshlar mamlakatning ertangi taraqqiyotida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib boryapti.

Viloyat hokimligi tomonidan yoshlar o'rtasida tashkil qilingan startap loyihalar tanlovi yoshlarni ilmiy izlanishlarga yo'naltirib, olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq etish imkonini bermoqda. Yaqinda o'tkazilgan shunday tanlovda talabalarimiz o'zlarining ilmiy salohiyati va biznes rejalarini namoyish etishdi.

Portlash sodir bo'lgan ko'p qavatli uy

va undagi aholining taqdiri nima bo'ladi?

Joriy yilning 9-sentabr kuni Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasidagi 9 qavatli binoda portlash sodir bo'ldi. Portlash binodagi xonadonlardan birida tabiiy gaz va havo aralashmasining chaqnashidan kelib chiqqan. Oqibatda 9 kishi jabrlangan, shundan bir nafari tananing 90 foizlik termik kuyishi tan jarohatini olgan.

Samarqand shahar hokimligi mas'ullari mazkur hodisa hamda uning oqibatlarini bartaraf etish borasida olib borilayotgan ishlar yuzasidan qo'shimcha ma'lumot berdi.

Unga ko'ra, portlash sodir bo'lgan 86-ko'p qavatli bino texnik ko'rikdan o'tkazilib, uning bir qismi yashash uchun yaroqsiz deb topilgan. Shu bois undagi 48 ta xonadon va 6 ta noturarjoy obyektni ko'chirishga qaror qilingan. Buning uchun Qorasuv massividan

Talaba loyihasi uchun ikki gektar yer ajratildi

Ularning ishlab chiqarilishi ko'zda tutilgan mahsulotlar va dorivor moddalarning inson salomatligiga ta'siriga oid ilmiy va amaliy ishlanmalari Samarqand davlat tibbiyot universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan tahlil qilindi. Bular orasida "Kungaboqar ildizidan choy tayyorlash" nomli startap loyihasi ko'pchilikning e'tiborini tortdi. Bu loyiha Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutining 2-bosqich talabasi Zebuniso Otanazarova va uning ilmiy rahbari tomonidan ishlab chiqilgan. Kungaboqar ildizi vitaminlarga boyligi, immunitetni oshirishi, vitamin E moddasining ko'pligi bilan boshqa o'simliklardan ajralib turadi. Kungaboqar ildizi qandli diabet, buyrak toshi kasalligi, bo'g'im kasalliklarida samarali foyda berishi ko'plab adabiyotlarda keltirilgan. Masalan, Yaponiyada kungaboqar ildizidan asab zo'riqishini davolash uchun foydalaniladi.

Loyihaning samaradorligini tekshirish Samarqand davlat tibbiyot universiteti farmatsevtika ishini tashkil qilish kafedrasiga yuklatildi. Kafedrada ushbu loyiha o'rganildi va chuqur tahlil qilindi. Loyihani takomillashtirish bo'yicha takliflar berildi. Hozirgi vaqtda loyiha moliyalashtirildi va talaba qizga ikki gektar yer maydoni ajratildi.

- Ustozlardan o'zim uchun

kerakli va kelajakda ishimni davom ettirishim uchun zarur bo'ladigan foydali maslahatlar va bilimlar oldim, - deydi Zebuniso Otanazarova. - Kungaboqar o'simligiga o'zining qiziqishim bo'lganligi uchun va bu ish butun dunyo bo'yicha qilinmaganligi sababli shu o'simlikni tanladim.

Endi Zebuniso ushbu loyihasi asosida o'z biznesini yuritadi. Ilm loyihaga ko'chgan, loyihalar biznesga, bu biznes esa yoshlarni mizning kelajagi va daromadiga aylanib, Vatanimiz taraqqiyotiga hissa qo'shadi, degan umiddamiz.

Aziz KUBAYEV,
Samarqand davlat tibbiyot universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori.
Nigina BOZOROVA,
universitetning farmatsevtika ishini tashkil qilish kafedrasini mudiri.



shahar hokimligi balansida bo'lgan ko'p qavatli bino ajratilgan. Hozirgacha, hokimlik balansidagi binoga 12 ta oila ko'chirilgan. Qolgan 36 ta xonadon egasi o'z xohishiga ko'ra boshqa manzilga, egaligidagi boshqa uy yoki qarindoshinikiga ko'chishi ta'minlangan.

Portlash mazkur binoga yaqin hududdagi imoratlarga ham jiddiy bo'lmagan zarar keltirgan edi. Ta'kidlanishicha, ular hokimlik nazorati ostida ta'mirlanib, jarayonda

aniqlangan boshqa kamchiliklar ham bartaraf etilmoqda.

Shahar hokimligi 86-ko'p qavatli binoning yashash uchun yaroqsiz deb topilgan qismini buzish ishlari boshlanganligini ma'lum qildi. Unga ko'ra, buzilayotgan bino o'rniga yangisi qurilib, 48 ta xonadon va 6 ta noturarjoy egalari avvalgi holat va shaklda topshiriladi.

Yangi bino 2025-yilning avgust oyida foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

Aytishlaricha, olimlarning amaliy bilimlari ular o'tgandan so'ng ham yashayveradi, darsliklar, ilmiy izlanishlar, shogirdlarining ishlari va faoliyati ular hayotiga yana qayta umr bag'ishlaydi. Shuning uchun olimlar har qanday davrda qadrlangan, ularning ilmidan el manfaatli yo'lida foydalanilgan. Vaqtda qadr topmagan yillar o'tib bo'lsa-da, olmos kabi yuzaga chiqib kelavergan.

Yetuk olim, mohir jarroh, sohir notiq

Tibbiyot fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan shifokor Rauf Omirov hayotlik chog'idayoq el nazariga tushgan, ilmi, faoliyati bilan jamiyatga nafi tegib, izlanishlari samarasi butun mamlakat miqyosida e'tirof etilgan olimlardan biri edi.

Rauf Omirov 1931-yilda Qirg'iziston Respublikasining Talas viloyatida tug'ilgan. 1954-yilda Samarqand davlat tibbiyot institutini bitirib, institutning umumiy jarrohlik kafedrasida klinik ordinaturani o'tadi. Kafedrada dastlab assistent, so'ngra dotsent va mudir sifatida faoliyat yuritdi. Ustozi 1962-yilda nomzodlik, o'n yildan so'ng doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Tibbiyot fakulteti dekani bo'lib ishladi. Keyinchalik Toshkent vrachlar malakasini oshirish institutida Andijon tibbiyot institutida jarrohlik kafedrasini mudiri sifatida samarali faoliyat ko'rsatdi.

Ustozi 1993-1996-yillarda Buxoro davlat tibbiyot instituti prorektori, so'ngra rektori lavozimlarida ishladi va umumiy jarrohlik kafedrasini mudiri sifatida ham mehnat qildi. Hayotining so'nggi yillarida R.Omirov Samarqand tibbiyot institutining umumiy jarrohlik kafedrasini professori vazifasida faoliyat olib bordi. Olimga Qirg'iz Xalqlar do'stligi universiteti professori darajasi ham berilgan edi.

Professor Rauf Omirov lazer jarrohligi, immunologiya va qalqonsimon bez jarrohligi bo'yicha 300 dan ortiq ilmiy ishlar, ikkita itiro va 20 ta ratsionalizatorlik takliflarining muallifidir. Olim rahbarligida 30 dan ortiq nomzodlik va 2 ta doktorlik



dissertatsiyalari himoya qilingan.

U ajoyib ma'ruzachi, notiq, favqulodda oqil inson sifatida talabalar va hamkasblari o'rtasida katta obro' va hurmatga sazovor bo'lgan edi. So'nggi kunlariga qadar u xalqonsimon bez operatsiyalarini amalga oshirdi.

Jarrohning qo'li o'ta sezgir bo'lishi kerak. Zargarnikidek nigoh, kulolnikidek ziyraklik va albatta olimlik salohiyati tufayli domlaga murojaat etuvchilarning soni ko'p edi. Bir paytning o'zida mohir jarroh, yetuk olim, iste'dodli notiq bo'lish ham-magayam nasib etavermaydi. Ammo domlada bu fazilatlarining barchasi mujassam edi. Shuning uchun ustozni eslaganda bu xususiyatlarning qay biri haqida yozishni bilmaymiz.

Bugun ulug' olim oramizda bo'lmasa-da, u kishining ilmi, kasb mahorati o'nlab shogirdlari timsolida, ilmiy ishlarida barhaqotdir.

Zayniddin NORMAN,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi, tibbiyot fanlari nomzodi.

REKLAMA, E'LOMLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

E'LONI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-124-son farmoni qabul qilindi. Farmonda Oliy Majlis palatalari, Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlari hamda ularning huzuridagi ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyalarining Oliy Majlis, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda mahalliy kengashlar huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlarini qo'shib yuborish va ularning negizida Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi alohida bo'linmalarini tashkil etish belgilangan.

XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI KENGASHI HUZURIDAGI NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINI VA FUQAROLIK JAMIYATINING BOSHQA INSTITUTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH JAMOAT FONDI.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xo'jamqulov Husan O'rinboyevich notarial idorasida marhum Rizayeva Zaynabga (2015-yil 25-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xo'jamqulov Husan O'rinboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 152-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Normatov Murod To'ychiyevich notarial idorasida marhum Boboyev Asrorga (2018-yil 5-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Normatov Murod To'ychiyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Andijon mahallasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulova notarial idorasida marhum Abduganiyeva Xoljon Toshpulatovnaga (2020-yil 23-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hasanov Aloviddin G'iyosiddin o'g'li notarial idorasida marhum Toxirova Zevarga (2024-yil 26-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hasanov Aloviddin G'iyosiddin o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Toyloq shaharchasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Narzullayev Fayzulloaga (2023-yil 4-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Lutfiy ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Muxtorova Mayramga (2020-yil 5-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 17-uy, 29-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Xaydarov Sirojiddinga (2005-yil 27-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hasanov Aloviddin G'iyosiddin o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Xamrayev Ravshanga (2003-yil 3-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Ashurov Xudoyberdiga (2009-yil 25-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 4-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mur

Yazdonqul HAMDAMOV

Viloyatimiz ta'lim sohasi og'ir judolikka uchradi. Fidoiy pedagog, mehribon mufti Yazdonqul Hamdamov 70 yoshida vafot etdi.

Y. Hamdamov 1954-yilda Toyloq tumanining Mirzapolov qishlog'ida tug'ildi. Dastlab "Bog'izag'on" shirkat xo'jaligida ishladi. 1972-yil Samarqand davlat universiteti talabasi bo'ldi. Oliyohoni muvaffaqiyatli tamomlagach, bo'lg'usi pedagog mehnat faoliyatini 1977-yil Samarqand tumanidagi 38-maktab o'qituvchiligidan boshladi. Ushbu maktabda yosh avlodning bilimdon bo'lib kamolga yetishiga munosib hissa qo'shdi.

1982-1985-yillarda "Bog'izag'on" xo'jaligi raisining o'rinbosari lavozimida mehnat qildi. Xo'jalikdagi har bir ishchining ijtimoiy manfaatlarini ta'minlash, himoya qilish ishlarida jonbozlik ko'rsatdi.

O'qituvchilikka mehri tufayli yana xalq maorifi tizimiga qaytib, ilk pedagogik faoliyatini boshlagan maktabda direktorlik qildi. O'n ikki yil Toyloq tumani hokimligi xalq ta'limi bo'limini boshqardi.

U o'zining salkam 40 yillik pedagogik faoliyatida ko'plab o'quvchilarda hayotga, kelajakka mustah-

kam ishonch uyg'ota oldi. Vatanimizga, xalqimizga sadoqat bilan mehnat qiladigan farzandlar bo'lib ulg'ayishi yo'lida fidoiylik ko'rsatdi. Shogirdlari mustaqil hayotga qadam qo'yganidan so'ng ham ularni ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlab, kasb-hunar o'rganishi, mustahkam oila qurishida yaqin maslahatgo'yiga aylandi.

Ustozi xalq deputatlari Toyloq tumani Kengashi deputati, 2008-2015-yillarda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi rahbari sifatida mehnat qilgan davrlarda ham ta'lim-tarbiya sohasini rivojlantirishga munosib hissa qo'shdi. Maktablardagi darsliklarning mazmuni, shakli va konsepsiyasini boyitish, aholining ma'naviyatini yuksaltirish yuzasidan yangi tashabbuslarni ilgari surdi, ko'p yillik pedagogik tajribalarini o'rtoqlashdi.

Mehribon ustoz, fidoiy pedagog, samimiy va kamtarin inson Yazdonqul Hamdamovning yorqin xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.

VILOYAT HOKIMLIGI, "NURONIY" JAMG'ARMASI VILOYAT BO'LIMI.

tazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasida marhum Axtamov Istamga (2023-yil 5-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasida marhum Xusanov Shoazam Mizamovichga (2020-yil 13-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko'chasi, 48-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Mirzayev Axtamga (2011-yil 13-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Ergashiov Bahodir Ortqiovichga (2023-yil 1-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Jumayeva Mastu-

Toyloq tumani hokimligi hamda Ma'naviyat va ma'rifat markazi Toyloq tumani bo'linmasi jamoalari faol nuroniy **Yazdonqul HAMDAMOV**ning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga ta'ziya izhor etadi.

[↓](#) *Mulohaza uchun mavzu*

Yoshlarning tarbiyasi nega buzilyapti?

“O‘zingdan kattalarga salom ber, ustozlaringga gap qaytarma, har joyga chiqindi tashlama, avtobusga chiqqanda kattalarga joy ber, o‘rtoqlaring bilan janjallashma, darsingni vaqtida tayyorla...” va hokazo. Yoshi kattalar bu gaplarni bolaligimizdan qulog‘imizga quyishgan. Ammo hamma davrning kattalarga quloq soladigan mo‘min-qobil yoshlari bilan birga, “quloqsiz”, “buzg‘unchi” yoshlari ham bo‘ladi. Xo‘sh, bu odatlar yoshlarda qanday shakllanadi? Keling, bu haqda fikr yuritishni bolalar tarbiyasida kim yoki nima muhimligidan boshlaymiz.

TARBIYA OILADAN BOSHLANADI

Bolaning tarbiyasi, dunyoqarashi oila muhitida shakllanadi. Maktab, litsey, texnikum, oliy o‘quv yurtida bolaga asosan ta‘lim beriladi. Masalan, maktabda o‘qituvchi 45 daqiqa davomida o‘quvchilarni yo‘qlama qiladi, o‘tilgan mavzuni so‘rab, baholaydi, yangi darsni tushuntirib, uyga vazifa beradi. Bu jarayonda o‘qituvchi tarbiya haqida besh daqiqa to‘xtaladi yoki yo‘q. Professional va oliy ta‘limda bu haqda gapirmasa ham bo‘ladi. Shu bois bu dargohlarda beriladigan tarbiya va mahalla ahlidan olinadigan ibrat oilada berilgan tarbiyaga faqat qo‘shimcha bo‘lishi mumkin.

- 30 yildan buyon boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga dars beraman, - deydi urgutlik o‘qituvchi Murodilla Eshonqulov. - Bolalar maktabga “suyagi qotgan” holda keladi. Chunki dastlabki tarbiya oilada berib bo‘linadi. Dars vaqtida o‘quvchilarning yurish turishi va o‘zini tutish jarayonlarida esa kim qanday tarbiya ko‘rgani oydinlashib qoladi. Rosti, hozir farzandining kelajagi haqida qayg‘u-radigan ota-onalar kamayib bormoqda. Jumladan, maktabda o‘tkaziladigan ota-onalar yig‘ilishlarida aksariyat hollarda o‘quvchilarning qarindoshlari keladi va ota-onasi ishdaligi aytiladi. Farzandining kelajagi uchun qayg‘urmagan, unga vaqt ajratmagan ota-ona kelgusida undan puch orzularni kutadi, xolos. Aksincha, qaysidir ota-ona oilasida yaxshi amallari bilan farzandiga o‘rnak bo‘lsa, uni ham shunga o‘rgatsa, kelajakda albatta, rohatini ko‘radi va bu ta‘limda ham bo‘y ko‘rsatadi.

ODAM VA “MAYMUN”

Bugungi kunda turli gadjet va mobil aloqa vositalari yoshlarga ikkinchi tarbiyachi vazifasini bajar-moqda. Bunga esa ota-onalarning o‘zi sababchi bo‘lyapti. Hozir ikki yoshga to‘lmagan bola ham telefon nimaligini, qanday vazifa bajarishni biladi. Chunki uyda yoshi kattalar telefon ishlatishni bolalarga o‘rgatgan va o‘sha jarayondagi harakatlarni o‘zlashtirgan. Tabbiiyki, yosh bola ko‘rgan narsasini bajarishga urinadi. Bunday vaziyatda ko‘pchilik ota-onalar xursand bo‘lib, bolaga telefondan foydalanishga ko‘proq imkoniyat yaratib beradi, yig‘lasa ham telefondagi qiziqarli narsalar bilan o‘vutadi. Oqibatda XXI asr bolasi mobil qurilmalarga o‘rganib qolmoqda. Qarabsizki, bu odatlar shakllanib, bolalar maktab yoshiga yetgunga qadar virtual olam va uning imkoniyatlaridan foydalanishni o‘rganib olmoqda.

Ayniqsa, keyingi paytda ommalashib borayotgan totalizator o‘yinlar, turli ko‘ngilochar dasturlar muxlisi va ishtirokchisiga aylanmoqda. Eng yomoni, mobil qurilmalar tarqatayotgan radiatsiya nurlari orqali turli kasalliklarga chalinyapti, buzg‘unchi g‘oyalar ta‘siriga tushib, dunyoqarashi o‘zgarayapti. 1930-yilda Uintrop Kellog psixologlar oilasi yangi tug‘ilgan maymunning bolasini o‘zlarining Donald ismli farzandi bilan birga tarbiyalamoqchi bo‘lishadi. Maqsad maymunni tarbiyalab, odam qilish edi. Biroz vaqt o‘tib, yosh oila maymundan voz kechadi, sababi ularning farzandi o‘zini xuddi maymunlardek tuta boshlagan edi.

Hozirgi axborot texnologiyalari asrida bunday qurilmalar hayotimizning bir qismiga aylanib bo‘lgan va ulardan voz kechib bo‘lmaydi. Lekin har bir ota-ona farzandiga bunday vositalardan foydalanishni cheklashi, ularning tarbiyasiga kim va nima ta‘sir ko‘rsatayotganini nazoratga olishi hamda har jabhada farzandiga o‘rnak bo‘lishi kerak. Aks holda, bola “maymun”larga o‘xshab qolishi hech gap emas.

NURONIYLAR HAYOTI YOSHLARGA IBRAT

Bilasizmi, faqat bizda bolaga ota-onasidan tashqari bobo-buvisi, qarindoshlar, hatto qo‘ni-qo‘shnilar ham mas‘ul ekan. Ya‘ni, o‘rni kelganda tarbiyani ular ham beraveradi. Chet elda esa mutlaqo buning aksi. E‘tibor bergan bo‘lsangiz, aksariyat ota-ona ishdagi yoki uy-



ro‘zg‘or yumushlari bilan band bo‘lib, farzand tarbiyasiga kam vaqt ajratadi va bolalarning tarbiyasi bilan bobo-buvilari shug‘ullanadi. Esimda, yoshligimdan bobom va buvimning ertaklari, o‘g‘itlarini eshitib katta bo‘lganman. Hozir esa ota-onam farzandimga ana shunday pand-nasihatlar berayotganini ko‘raman.

Bizda ajdodlar va avlodlar o‘rtasidagi ko‘prik - bu milliy qadriyatlar, an‘analardir. Buni yoshlar ongiga singdirish, har tomonlama barkamol, sog‘lom avlodni voyaga yetkazishda nuroniylarning o‘rni beqiyos. Jamiyatda yoshi ulug‘ insonlar qo‘lida tarbiya ko‘rgan har qanday bolaning dunyoqarashi keng bo‘ladi, Vatan, oila qadriga yetadi, urf-odat va qadriyatlarimizni hurmat qiladi. Asosiysi, hayotda o‘z o‘rnini tez topadi.

OTA-ONA JANJALIDAN FARZAND AZIYAT CHEKMOQDA yoxud bolaga e‘tibor kerak

So‘nggi vaqtlarda er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro kelishmovchilik ochiqchasiga o‘z farzandlariga ziyon yetkazish, hatto ularni o‘ldirishgacha borish holatlarini bilan tugamoqda. Buning jabrini esa begunoh norasidalar tortyapti.

- Oilaviy nizolar yoki ota-onalarning farzandiga vaqtida e‘tibor bermagani bois bola tarbiyasida nuqsonlar ko‘p uchramoqda, - deydi psixolog Sarvinoz Nosirova. - Chunki keyingi paytda aynan shunday murojaatlar ko‘p tushmoqda. Bunday vaziyatda bolalarda ruhiy zo‘riqlik vujudga kelyapti va ular o‘z uyidan, ota-onasidan bezaypti. Oqibatda ruhiy kasalliklarga chalinish, alam ustida ko‘ngilsiz hodisalarga qo‘l urish kuzatilmoqda.

Aksariyat hollarda yoshlarning hayot qurishga tajribasizligi, ya‘ni erta turmush va ularni hayotga tayyorlashda kamchiliklarga yo‘l qo‘yilayotgani ana shunday ko‘ngilsizliklarni keltirib chiqarmoqda. Buning ustiga oila qurgach, bola tarbiyasiga yetarlicha e‘tibor berilmayapti. Qiziqishi, istaklari qo‘llab-quvvatlanmayapti va natijada bola umidsizlikka tushib, o‘ziga bo‘lgan ishonchi so‘nyapti. Bunday vaziyatga tushib qolgan bolalar asosan ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o‘tkazish orqali o‘zini o‘vutadi, kimlarga-dir o‘xshashga, mashhurlikka harakat qiladi yoki do‘stlari orasida eng zo‘ri bo‘lishga intiladi. Hamma narsaga oson erishish yo‘llarini izlaydi. Afsuski, bu yo‘l navnihollarni turli oqimlar domiga tortib xarob qilmoqda.

Yana bir toifa ota-onalar borki, farzandini haddan ziyod erka qilib o‘stiradi, aytgan narsasini muhayyo qiladi. Lekin uni nazoratga olmaydi va bola kelgusida ko‘ngliga kelgan ishni qiladi. Bu yo‘l ham yoshlarni boshi berk ko‘chaga yetaklaydi.

Yoshlarning tarbiyasi haqida gap ketganda kattalarning “Eh-he, bizning davrimizda...” deb boshlanadigan xotiralari hozirgi yoshlar buzilib ketgani haqidagi afsus-nadomatlar bilan tugaydi. Aslida esa yoshlarning buzilmasligi jamiyatda kattalar o‘rnatgan tartib-qoidalariga qanchalik amal qilinayotgani bilan belgilanadi. Oilada bola sog‘lom fikr bilan tarbiyalansa, yoshligidan mehnat qilishga, mustaqil yashashga o‘rgatilsa, tarbiyasi buzilmaydi.

Fazliddin RO‘ZIBOYEV,
“Zarafshon” muxbiri.

Toyloqdagi Kattaravot mahallasida yashovchi bu xonadonni halovat markazi deyishadi. Gap shundaki, xonadon egalari Mannon va Gulchehraxon ko‘p yillik ibratli hayotlari tufayli ana shu maskanda osoyishta umr kechiradilar. Ularning nafaqat inoqligi, balki ertalabdan kechgacha oila, ro‘zg‘or tashvishlaridan halovat topishlariga havas qilishadi.

Xususan, Mannon ixchamgina bog‘ parvarishida xuddi tajribali bog‘bonlardek mehnat qiladi. Umu-man, u talabaligidan ortiqcha vazn va ortiqcha gapni ko‘tara olmasdi. Shu tufayli bo‘lsa kerak, bugun chaqqonligi, ixchamligi, g‘ayrat-shijoati vujudiga tetiklik bag‘ishlaydi. Buning ustiga bu xonadonda “bobo stipendiyasi” tashkil etilgan. Mannon 4 nafar qiz, bir o‘g‘ilning otasi, 15 nafardan iborat nabira va chevaralariga yaxshi o‘qiganligi, odobda namuna bo‘lganligi hamda iqtidori uchun yarim yillik o‘quv yili natijalariga qarab, stipendiya joriy qilgan. Bu bor gap. Axir 60 yil tibbiyot bilan shug‘ullangan, 55 yil hamkasb turmush o‘rtog‘i bilan mazmunli umr kechirgan Mannon do‘stimiz ilm, farosat rag‘bati nimaga qodir ekanligini yaxshi biladi-da.

Aynan shuning uchun ham Dillola, Shahnoza, Madina ota-ona kasbini tanlashdi. Iroda - o‘qituvchi, Ulug‘bek Germaniyada zamonaviy dasturchilik kasbini egalladi, Shoiranemis tili filologiyasi bo‘yicha falsafa doktori, dotsent darajasiga erishdi. Nabiralardan to‘rt nafari allaqachon oliy, uch nafari o‘rta-maxsus ma‘lumot olib, elga xizmat qilmoqda, ikki nafari institutda talaba, uch nafari Prezident maktabida o‘qiydi. “Olmaning tagiga olma tushadi”, deganlari shu bo‘lsa kerak.

Darvoqe, halovat haqida gapirdik. Bu oyoqni uzatib, fe‘lni keng, ko‘ngilni to‘q qilib yotib olish emas. Halovat farzandlardan ko‘ngilning

Halovatga yo‘g‘rilgan umr

Taniqli shifokor va pedagog Mannon Rahimov siymosiga chizgilar



to‘q bo‘lishi, farzandlar timsolida o‘zini ko‘rishi, umrining besamar o‘tmaganligini his qilishidir. Zero, har qanday halovatga mashaqqat va tashvish bilan erishiladi. M.Rahimov ana shu yo‘lni sabot bilan bosib o‘ta oldi. 1963-yilda Samarqand zoove-terinariya texnikumini tugatgach, Samarqand davlat tibbiyot institutining davolash fakultetida o‘qidi. Moskvada nufuzli oliygohda aspiranturada o‘qib, 1975-yilda nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

Bu tasodifiy hol emas edi. Biz kursdosh sifatida ham Mannon-dagi bu jo‘shqinlik va shijoatni ko‘rganmiz, undan ibrat olganmiz. Shu boisdan ham Samarqand davlat tibbiyot instituti jarrohlik va topografik anatomiya kafedrasida ishlash jarayonida yaratgan qo‘llan-malari, risolalari, ilmiy to‘garaklarda erishgan yutuqlarni odatiy hol, deb qabul qilganmiz. Bundan tashqari, u sobiq ittifoq davrida qayerda o‘z sohasi bo‘yicha ilmiy-amaliy anjuman bo‘lsa, borishdan, o‘rganishdan, malaka oshirishdan erinmasdi.

Men uchun faxrlisi shundaki, 1989-2008-yillar davomida Samarqand tayanch tibbiyot kolleji direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari sifatida bu ilm maskanining

respublikada namunal muassasaga aylanishiga munosib hissa qo‘shdi. Shaxsiy ibrati, talabchanligi bilan mehnat intizomini mustahkamlashga erishdi. A‘lochilarni, ichki intizomi kuchli yoshlarni rag‘batlantirish orqali talabalar o‘rtasida obro‘ga ega bo‘ldi.

16 ta o‘quv-uslubiy ishlanmalar yaratdi. 10 dan ziyod turli yirik ilmiy anjumanlarda ma‘ruzalar qildi. Buning evaziga ko‘plab mukofotlar oldi, muhimi, jamoa, hamkasblari o‘rtasida hurmat qozondi.

M.Rahimov bugun 80 yoshini qarshilamoqda. Aslida u hech qachon hashamga, shuhratga, dabdabaga berilmagan. Oila, do‘stlar davrasida e‘tiborli bo‘lishni baxt deb tushunadi. Buning ustiga farzandlar, nevara-chevaralar kamoloti Mannon va turmush o‘rtog‘i, taniqli shifokor Gulchehraxonning ko‘ngliga taskin berib turibdi. Binobarin, bu taskin baxtdan ham oliyroq tuyg‘udir. Bar-chamizni shu kunlarga yetkazsin.

Rahmon MUHAMMADIYEV,
tibbiyot fanlari doktori,
professor,
O‘zbekiston Qahramoni.
Yaxshinor ALLAYOROV,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti professori.

Qadriyatlar qadrlanayotgan yurtda yashaymiz

Yurtimizda turli millat va elat vakillari o‘rtasida do‘stlik rishtalarining mustahkamlanib borayotgani qudratimiz aynan birlik va hamjihatlikda ekanini tasdiqlab turibdi. Bugungi kunda viloyatimizda 120 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qilib keladi. Jumladan, Samarqand shahridagi “Do‘stlik uyi”da viloyat nemis milliy markazi faoliyat olib boradi. Bugungi kunda viloyatda nemis millatiga mansub 100 nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi. Ular orasida tadbirkorlar, o‘qituvchi, quruvchi, shifokor va boshqa kasb egalari turli millat vakillari bilan ahil va inoq yashab, hayotning barcha soha va tarmoqlarida sidqidildan mehnat qilmoqda.

- Ona Vatan yurakda bo‘ladi, - deydi nemis diasporasi faoli, 73 yoshli Valentina Aliyeva. - Turli millat va elatlarga bag‘rini ochadigan makonda og‘a-ini, do‘st-birodar, quda-anda, bir xalq bo‘lib, ahillikda umrguzaronlik qilib kelyapmiz. Shu sabab ham bir maqsad atrofida darrov birlashamiz.

Samarqand shahridagi nemis tiliga ixtisoslashgan 51-umumta‘lim maktabi o‘quvchilari 1-sinfdan o‘qituvchi tili chuqurlashtirilgan holda o‘rganib borishadi. Nemis millatiga mansub aholining farzandlari ham shu maktabga qatnab o‘qiydi.

- Hukumatimiz va Germaniyaning O‘zbekistondagi elchixonasi tomonidan markazimiz nemis tilidagi gazeta va jurnallar, kitob va boshqa o‘quv qurollari bilan ta‘minlangan, - deydi viloyat nemis milliy markazi raisi Natalya Klyotser. - Farzandlarimiz ular bilan tanishib, nemis milliy madaniyati, urf-odatlar va qadriyatlarini o‘rganib borishmoqda. Shuningdek, o‘nlab yoshlarimiz markazda tashkil etilgan to‘garaklarda nemis tilini o‘rganish bilan birga ona Vatanni madh etuvchi kuy-qo‘shnilar, milliy liboslar bichish va tikishni o‘rganib borishadi. Yurtimizda o‘tayotgan Mustaqillik, Navro‘z, Konstitutsiya bayramlarida, festivallarda nafaqat ashula va raqs guruhimiz bilan, balki shtrudel, revalkuxe, pudelup kabi nemis milliy taomlari bilan ham ishtirok etamiz.

Markaz a‘zolari - mamlakatimizdagi boshqa nemis milliy markazlari vakillaridan tashqari Germaniyada yashovchi nemislar bilan ham o‘zaro yaqin hamkorlik o‘rnatishgan.

Markaz vakillari Samarqand davlat chet tillar instituti talabalari T.Osmanova va K.Troshina malaka oshirish maqsadida Germaniyaga borib, ajdodlarining madaniyati, kuy-qo‘shiqlari, yashash tarzi, urf-odatlarini o‘rganib kelishdi.



Ikki yildan buyon Germaniya, Avstriya, Fransiya, Shvetsiya davlatlarida istiqomat qilayotgan nemis millatiga mansub 26 nafar sayyohat yurtoyotga sayohat qilib, nafaqat nemislar, balki mahalliy aholi hayoti bilan yaqindan tanishadilar.

- O‘zim qishloqda yashayman, ular har safar hovlimizga kelib, mehmon bo‘lib ketishadi, - deydi V.Aliyeva. - Qo‘shnilarimiz oddiy o‘zbek oilasining yashash sharoiti va hayoti bilan qiziqishadi. Ayollarimizning kashta tikayotgan, non yopayotgan, palov pishirayotgan holatlarini su-ratlarga olishadi. To‘ylarimizga kelib, mehmon bo‘lishadi, raqslarga tushib, bag‘rikeng va mehmondo‘st xalqimizni ko‘rib, lol qolishadi.

Bugun O‘zbekiston barcha millatlar uchun yagona Vatan. Xalqimizning bag‘rikengligi, hamjihatligiga ko‘z tegmasin.

Dilmurod TO‘XTAYEV.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 790 nusxada chop etildi. Buyurtma 480. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E‘LONLAR: (66) 233-91-56

BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda